



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 370 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsonal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиёва Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021-2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	346
Poyonov Otabek Abdigaxxor o'g'li	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqnullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjieva Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях	361
Muradov Botir Xayat	



IQTISODIY KONSENTRATSIYALARNING SOG'LOM RAQOBAT MUHITIGA TA'SIRI



Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi mutaxassisi,
mustaqil tadqiqotchi (PhD)

E-mail: luqmanovsharifxon@gmail.com

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitining sog'lomligi iqtisodiy samaradorlik, innovatsion rivojlanish va iste'molchilarning farovonligi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Biroq iqtisodiy konsentratsiyalarning kuchayishi, ya'ni bir necha yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarning bozor ustuvorligini qo'lga kiritishi ushbu muhitga jiddiy xavf tug'diradi. Ushbu maqolada iqtisodiy konsentratsiyalarning raqobat muhiti, narx shakllanishi, innovatsion faollik va bozorga kirish imkoniyatlariga ko'rsatadigan ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy va xalqaro tajribalar asosida ushbu jarayonni nazorat qilish va sog'lom raqobatni qo'llab-quvvatlash strategiyalari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy konsentratsiya, raqobat muhiti, bozor strukturalari, monopoliyalar, tartibga solish, innovatsiyalar, iste'molchilar huquqlari, Herfindal–Hirshman indeksi, birlashish va qo'shib olishlar.

Abstract: In a market economy, a healthy competitive environment is a crucial factor for economic efficiency, innovative development, and consumer welfare. However, the increase in economic concentrations, i.e., the acquisition of market dominance by a few large economic entities, poses a serious threat to this environment. This article provides an in-depth analysis of the impact of economic concentrations on the competitive environment, price formation, innovative activity, and market entry opportunities. It also develops strategies for monitoring this process and supporting healthy competition based on national and international experience.

Key words: economic concentration, competitive environment, market structures, monopolies, regulation, innovation, consumer rights, Herfindahl–Hirschman index, mergers and acquisitions.

Аннотация: В рыночной экономике здоровая конкурентная среда является важнейшим фактором экономической эффективности, инновационного развития и благосостояния потребителей. Однако рост экономической концентрации, то есть приобретение несколькими крупными хозяйствующими субъектами доминирующего положения на рынке, представляет серьезную угрозу для этой среды. В данной статье представлен углубленный анализ влияния экономической концентрации на конкурентную среду, ценообразование, инновационную активность и возможности выхода на рынок. Также разрабатываются стратегии мониторинга этого процесса и поддержки здоровой конкуренции на основе национального и международного опыта.

Ключевые слова: экономическая концентрация, конкурентная среда, рыночные структуры, монополии, регулирование, инновации, права потребителей, индекс Херфиндаля–Хиршмана, слияния и поглощения.



KIRISH

Iqtisodiy konsentratsiyalar — bu iqtisodiy kuchning nisbatan kam sonli xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki shaxslar guruhlarini qo'lida jamlanishi bo'lib, bozor muvozanati, raqobatbardoshlik, narxlar shakllanishi va resurslar taqsimotiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon korxonalarning o'zaro birlashuvi, qo'shilishi, vertikal integratsiya yoki yirik kapitallar o'rtasidagi bitimlar orqali yuzaga keladi.

Ba'zi hollarda ma'lum miqdordagi konsentratsiya samarali boshqaruv, innovatsiyalar va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Ammo konsentratsiyaning haddan tashqari oshishi sog'lom raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatib, monopollashuv, narxlarning manipulyatsiyasi, innovatsiyalarni sekinlashtirish va yangi ishtirokchilarning bozorga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Iqtisodiy konsentratsiyalarning raqobat muhitiga ta'siri

Narx shakllanishiga ta'siri

Konsentratsiyalashgan bozorlarda narx shakllanish mexanizmi sezilarli darajada buziladi. Yetakchi korxonalar bozor kuchiga ega bo'lganda, ular raqobat sharoitidagi narxlardan yuqori narxlar belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat Lerner indeksi orqali baholanadi:

$$L = \frac{(P - MC)}{P} = \frac{P - MC}{P} \Rightarrow P = \frac{MC}{1 - L}$$

Bu yerda P — bozor narxi, MC — chegaraviy xarajat. Indeks qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, bozor kuchi shunchalik kuchli hisoblanadi.

Innovatsiyalar va texnologik rivojlanishga ta'siri

Iqtisodiy konsentratsiyalarning innovatsiyalarga ta'siri ziddiyatli xususiyatga ega. Bir tomondan, yirik korxonalar innovatsion loyihalar uchun zarur bo'lgan katta moliyaviy resurslar, malakali kadrlar va ilmiy-tadqiqot bazasiga ega. Boshqa tomondan, raqobat bosimining pasayishi innovatsion faollikni susaytirishi mumkin.

Shumpeter paradoksi ushbu ziddiyatning nazariy asosini tashkil etadi. Unga ko'ra, monopolistik vaziyatga ega korxonalar innovatsion faoliyatga ko'proq resurs ajratishlari mumkin, ammo raqobat yo'qligi innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Bozorga kirish to'siqlariga ta'siri

Konsentratsiyalashgan bozorlarda yangi ishtirokchilar uchun quyidagi to'siqlar kuchayadi:

- Moliyaviy to'siqlar — katta boshlang'ich investitsiyalar;
- Texnologik to'siqlar — zamonaviy texnologiyalarga kirish cheklavlari;
- Brendlash va marketing — taniqli brendlar bilan raqobat qilish qiyinligi;
- Tarqatish kanallari — sotish tarmog'iga kirish murakkabligi;
- Regulyativ to'siqlar — litsenziya va sertifikatlash talablari.

Iste'molchilar farovonligiga ta'siri

Iqtisodiy konsentratsiyalarning iste'molchilar farovonligiga ta'siri quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Salbiy ta'sirlar:

- Yuqori narxlar va cheklangan tanlov;
- Mahsulot va xizmat sifatining pasayishi;
- Mijozlarga munosabatda e'tiborsizlik, shikoyatlarga nisbatan befarqlik.
- Ijroiy ta'sirlar:
- Barqaror va standartlashgan xizmat;
- Katta investitsiyalar talabidagi innovatsiyalar;
- Xalqaro standartlarga muvofiqlik.

Iqtisodiy konsentratsiyalarni baholashdagi muammolar

Iqtisodiy konsentratsiyaning to'g'ri baholash samarali tartibga solish va nazorat qilish uchun juda muhimdir. Biroq bu jarayonda turli qiyinchiliklar mavjud. Muammolardan biri — konsentratsiyaning aniq o'lchash uchun tegishli o'lchovlar va ko'rsatkichlarni aniqlashdir.

Herfindal–Hirshman indeksi (HHI) va konsentratsiya nisbati kabi an'anaviy ko'rsatkichlar, ayniqsa murakkab va o'zaro bog'liq bozorlarda, cheklavlarga ega. Shu bois to'g'ridan-to'g'ri hamda bilvosita konsentratsiya ta'sirini qamrab oladigan keng qamrovli va moslashtirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Yana bir muammo — ishonchli va o'z vaqtida ma'lumotlarni olishdir. Bozor konsentratsiyasini baholash bozor ulushlari, mulkchilik tuzilmalari va savdo faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishni talab qiladi. Ma'lumotlar shaffofligining cheklanganligi sababli, tartibga soluvchi organlar to'liq tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Xuddi shunday, moliya bozorlarida ham ayrim operatsiyalar va ishtirokchilarning shaffof bo'lmashligi aniq konsentratsiyaning baholashga to'sqinlik qilishi mumkin.

Xalqaro amaliyot

- Yevropa Ittifoqi: 1990-yildan buyon Birlashishlar to'g'risidagi Nizom asosida yirik kompaniyalar bitimlari alohida tartibda ko'rib chiqiladi.

- AQSh: Sherman Act va Clayton Act asosida monopolistik faoliyatga cheklov qo'yiladi.



- OECD mamlakatlari: raqamli iqtisodiyotda konsentratsiyani baholashda algoritmik narx shakllanishi va ma'lumotlardan foydalanish tahlili qo'llaniladi.

- Raqobatni ta'minlash strategiyalari

- Monopoliyaga qarshi qonunchilikni mustahkamlash: raqamli iqtisodiyotda yangi konsentratsiya shakllariga moslashgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish.

- Bozorga kirishni rag'batlantirish: yangi ishtirokchilar uchun subsidiya, soddalashtirilgan litsenziya tartibi, startap fondlari.

- Ma'lumotlar shaffofligini oshirish: majburiy hisobotlar joriy etish, DLT (distributed ledger technology) asosida tranzaksiyalarni kuzatish.

- Transchegaraviy hamkorlik: xalqaro bitimlar nazorati va koordinatsiyasini kuchaytirish.

- Innovatsion nazorat usullarini joriy qilish: sun'iy intellekt asosida bozor dinamikasini bashorat qiluvchi vositalarni ishlab chiqish.

Iqtisodiy konsentratsiyalar to'g'ridan-to'g'ri talab va taklif dinamikasiga, narxlar shakllanishi hamda muayyan bozorlardagi raqobat darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Neft, metallar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari kabi tovar bozorlarida yuqori darajadagi konsentratsiya narxlarning manipulyatsiyasiga, bozor likvidligining pasayishiga va yangi ishtirokchilar uchun cheklangan kirishga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, moliya bozorlarida bir nechta institutlar o'rtasida hokimiyatning to'planishi tizimli xavf-xatarlarga, bozorni manipulyatsiya qilishga va adolatsiz amaliyotlarga sabab bo'ladi.

Iqtisodiy konsentratsiyani tartibga solish va nazorat qilish — adolatli raqobatni ta'minlash, monopolistik amaliyotlarning oldini olish hamda bozor samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan nihoyatda muhimdir. Ma'lum bir soha yoki bozorda bir nechta firma hukmronlik qilgan holatlarda yuzaga keladigan iqtisodiy konsentratsiyalar iste'molchilarning xohishlariga, innovatsiyalarga va umumiy iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish zarurligi muhokama qilinadi hamda ushbu maqsadga erishish uchun asosiy strategiyalar taklif etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy konsentratsiyalar va ularning raqobat muhitiga ta'siri ilmiy hamda amaliy jihatdan keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Ushbu maqolada nazariy va empirik asoslarni mustahkamlash uchun bir qator milliy va xalqaro manbalardan foydalanilgan.

Birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni (2023) ushbu sohadagi huquqiy asosni belgilab beradi. Unda iqtisodiy konsentratsiyalarni aniqlash, oldini olish va nazorat qilish mexanizmlari qat'iy belgilangan. Mazkur hujjat raqobatni himoya qilish bo'yicha milliy siyosatning asosi hisoblanadi.

Rasulov N. M. va Ismoilov A. R. tomonidan yozilgan "Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi" (2019) asarida iqtisodiy kuch konsentratsiyasi, monopoliyalarning shakllanishi va ularni tartibga solish usullari milliy sharoitda keng yoritilgan. Ushbu manba maqoladagi nazariy tushunchalarning milliy kontekstda tahlil qilinishiga xizmat qiladi.

Xalqaro nuqtai nazardan Carlton D. va Picker R.ning "Antitrust and Regulation" (2014) nomli tadqiqoti AQSh tajribasi asosida konsentratsiyalarni huquqiy va iqtisodiy baholash uslublarini izohlaydi. Bu manba maqoladagi huquqiy tartibga solish bo'yicha tavsiyalarni asoslashda muhim o'rin tutadi.

Michael Porterning "Competitive Strategy" (2009) asari esa raqobat strategiyalari va bozor strukturalarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Uning yondashuvlari orqali konsentratsiyaning raqobatga ta'siri aniq va tizimli tarzda ko'rsatib berilgan.

OECD tomonidan chop etilgan Competition Assessment Toolkit (2023) esa xalqaro miqyosda konsentratsiya va monopolistik tuzilmalarni baholashda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va indekslar (xususan, Herfindal–Hirshman indeksi) haqida muhim metodologik tavsiyalar beradi.

Shuningdek, EU Merger Regulation (2022) yirik kompaniyalar o'rtasidagi birlashish va qo'shib olish bitimlarini Yevropa Ittifoqi doirasida qanday tartibga solish bo'yicha aniq normalarni taqdim etadi.

Nazariy jihatdan Shumpeterning "Capitalism, Socialism and Democracy" (1942) asarida raqobat va innovatsiya o'rtasidagi murakkab munosabatlar bayon qilingan. Uning "Shumpeter paradoksi" konsepsiyasi maqoladagi innovatsiyaga oid tahlilga asos bo'lgan.

Bundan tashqari, Clark J. M.ning "Economics and Modern Psychology" maqolasi va Journal of Competition Law & Economicsda 2009-yil 20–noyabrda chop etilgan Dynamic Competition in Antitrust Law maqolasi kognitiv va dinamik yondashuvlar orqali konsentratsiyalarning muqobil tahlil usullarini ochib beradi.

Oxirgi manba sifatida Портер М. Э.ning "Конкурентная стратегия" (2009) asari rus tilida chop etilgan bo'lib, u raqobat muhitini tahlil qilishda sektorlararo yondashuvning o'ziga xos tomonlarini yoritadi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Nazariy tahlil usullari:

- Ilmiy adabiyotlar tahlili – milliy va xalqaro manbalar asosida nazariy asoslarni o'rganish;
- Qiyosiy tahlil – turli mamlakatlar tajribasini solishtirish va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash;
- Tizimli yondashuv – iqtisodiy konsentratsiyalarni kompleks hodisa sifatida o'rganish.

Empirik tadqiqot usullari:

- Statistik ma'lumotlar tahlili – O'zbekiston Respublikasi Raqobat qo'mitasining statistik ma'lumotlarini o'rganish;
- Konsentratsiya indeksleri hisobi – HHI, CR4, CR8 va boshqa ko'rsatkichlarni hisoblash;
- Dinamik tahlil – konsentratsiya ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha o'zgarishini kuzatish.

Ma'lumotlar to'plash usullari:

- Rasmiy statistika – davlat statistika organlari ma'lumotlari;
- Raqobat organlari hisobotlari – yillik va chorak hisobotlar tahlili;
- Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari – OECD, Jahon banki, xalqaro raqobat tarmoqlari ma'lumotlari;
- Korxonalar moliyaviy hisobotlari – ochiq manbalar orqali bozor ulushi tahlillaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobat organi shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo'yicha, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish yoki qo'shib olishga doir harakatlarni amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oldindan rozilik berish orqali iqtisodiy konsentratsiyani nazorat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy konsentratsiyalarni oldini olish uchun birlashish va qo'shib olish operatsiyalarini tekshirishni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Tartibga soluvchi tashkilotlar konsentratsiyalarning raqobatga ko'rsatadigan ta'sirini baholash uchun chuqur tahlillarni amalga oshirishlari lozim. Tekshiruv jarayonlari bozor hajmi, kirish to'siqlari, innovatsiyalar va iste'molchilar tanlovi kabi muhim omillarni inobatga olishi zarur. Tartibga soluvchi organlar raqobatga jiddiy tahdid soluvchi birlashishlarni to'xtatish yoki ular uchun maxsus shartlarni belgilash huquqiga ega bo'lishlari kerak.

Yangi va innovatsion firmalarning bozorga kirishini rag'batlantirish iqtisodiy konsentratsiyalarga qarshi kurashishning samarali vositasidir. Hukumatlar yangi ishtirokchilar uchun qulay biznes muhitini yaratish, bozorga kirish to'siqlarini kamaytirish, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish hamda moliyaviy imtiyozlar taqdim etish orqali startaplar va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Raqobat siyosati yangi ishtirokchilarga bozorning ustun o'yinchilari bilan teng sharoitda raqobatlashish imkonini beruvchi muhitni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Iqtisodiy konsentratsiyalarning globallashtirish sharoitida kengayib borayotganligi bois, tartibga soluvchi tashkilotlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Ushbu hamkorlik ma'lumot almashish, ilg'or amaliyotlarni tatbiq etish, qonun hujjatlari va tartibotlarni uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Monopoliyaga qarshi organlar o'rtasida tartibga solish va nazorat faoliyatini muvofiqlashtirish orqali transmilliy konsentratsiyalarni samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi.

Iqtisodiy konsentratsiyalar bilan bog'liq salbiy ta'sirlarni yumshatish uchun iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish talab etiladi. Bunda narx shaffofligini ta'minlash, muqobil mahsulot va xizmatlarga kirishni rag'batlantirish, adolatli raqobat siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iste'molchilarga zarur ma'lumotlarni yetkazish, murojaatlarni tezkor ko'rib chiqish mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, qonuniy himoya vositalari orqali ularning manfaatlarini ta'minlash mumkin.

Iqtisodiy konsentratsiyalar zamonaviy bozor iqtisodiyotining muqarrar hodisasi bo'lib, ular sog'lom raqobat muhitiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Asosiy vazifa — konsentratsiyaning ijobiy jihatlarni saqlab qolgan holda, salbiy oqibatlarini kamaytirish va oldini olishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi yo'nalishlarda kompleks yondashuv zarur: huquqiy-institutsional asoslarni mustahkamlash, ya'ni zamonaviy talablarga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish va kuchli raqobat institutlarini yaratish; monitoring va tahlil tizimini takomillashtirish, ya'ni zamonaviy texnologiyalar asosida proaktiv nazorat mexanizmlarini joriy etish; xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali global konsentratsiyalarga qarshi birgalikda choralar ko'rish; innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali raqobatbardosh muhitni saqlab qolish va rivojlantirish; iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, ya'ni bozor shaffofligi va adolatli munosabatni ta'minlash.



O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida iqtisodiy konsentratsiyalarni samarali boshqarish milliy iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, konsentratsiyalarga qarshi kurash faqat cheklov va taqiqlar orqali emas, balki sog'lom raqobat muhitini yaratish va uni tizimli ravishda qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni. – 2023. <https://lex.uz/docs/-6518381>
2. Rasulov N. M., Ismoilov A. R. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. – Toshkent, 2019.
3. Carlton D., Picker R. Antitrust and Regulation. – Chicago: University of Chicago Press, 2014.
4. Porter M. Competitive Strategy. – New York: Free Press, 2009.
5. OECD Competition Assessment Toolkit. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. EU Merger Regulation. – Brussels: European Commission, 2022.
7. Shumpeter J. A. Capitalism, Socialism and Democracy. – London: Routledge, 1942.
8. Clark J. M. Economics and Modern Psychology. // Journal of Political Economy. – Vol. 26, No. 1–2.
9. Journal of Competition Law & Economics. Advance Access publication – 2009-yil 20-noyabr. Dynamic Competition in Antitrust Law.
10. Портер М. Э. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / Пер. с англ. – Учебник. – 2-е изд. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2009.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>